

TEXNOLOGIYA FANINING O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Barchinoy Mahmudova

Fargona shahar maktab va maktabgacha ta'limi tasarrufidagi

30- o'rta ta'lim maktabi texnologiya fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16809830>

Fanga doir zamonaviy interfaol metodlar texnologiya fan o'qituvchilari uchun darslar davomida va darsdan tashqari qo'shimcha mashg'ulotlarda o'quvchilarni yahshi o'zlashtirishlariga, o'quv materiallarini va berilgan mavzularni tezroq va osonroq o'zlashtirishiga yordam beradi.

Kalit so'zlar. ped texnologiya, Sherigini top o'yini, Zardo'zlik, "Kichik guruhlarda ishlash metodi", yog'och o'ymakorligi, metal o'ymakorligi, kashtachilik, zardo'zlik, pazandachilik, do'ppichilik, kulolchilik, maxsido'zlik.

Bugungi kunda amaliy fanlar ta'limning samaradorligi hal qiluvchi darajada o'qituvchining o'quv fanlari tizimidagi o'rni, zamonaviy maqsadlari va yangi metodlarni to'g'ri qo'llay olishiga bog'liq. Zamonaviy, ya'ni jahon standartlari darajasida dars bermoqchi bo'lgan har bir o'qituvchi bugungi kunda o'z ustida ishlab yangi zamonaviy ped texnologiyalarni o'rganib borishi kerak. Zamonaviy ped texnologiyalar ham o'quvchilarga ham o'qituvchilarga birdek samaralidir.

Sherigini top o'yini

O'tilgan mavzuni takrorlashda "Sherigini top" o'yinidan foydalansak bo'ladi:

Bu metodlar o'quvchilarni darslarni o'zlashtirishga yordam beradi, dunyoqarashni oshiradi, tafakkurni rivojlantiradi, o'quvchilarning diqqat-e'tiborini tortadi, xotirani kuchaytiradi, izlanishga chorlaydi, o'quvchilarni o'z ustida ishlashga da'vat etadi.

"Kichik guruhlarda ishlash metodi"

Bu metod – ta'lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlariga ajratgan holda o'quv materialini o'rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo'llanilganda ta'lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolda bo'lishga bir-biridan o'rganishga va turli nuqtai nazarlarni qadrlash imkoniga, vaqtni tejash imkoniga ega bo'ladi

Naqqoshlik, ganchkorlik, zargarlik, yog'och o'ymakorligi, metal o'ymakorligi, kashtachilik, zardo'zlik, pazandachilik, do'ppichilik, kulolchilik, sartaroshlik va boshqalar.

Quroqchilik- xalq hunarmandchiligining qadimiy va keng tarqalgan turlaridan biri hisoblanadi. Darsda o'quvchilarda badiiy didni o'stirish, sabr toqatlilik hislatlarini shakllantirish, ularga o'lchash-rejalash va gazlama bo'laklarini o'zaro muvofiq joylashtirishni hamda tejamonkorlikka o'rgatishning muhim yo'llaridan biri quroqchilik ishlarini o'rgatishdir.

Avval markazdagi kvadrat tayyorlab olinadi. Bu kvadrat yaxlit yoki uchburchaklardan yig'ilgan bo'lishi mumkin so'ngra birinchi va ikkinchi ko'rinishlar bajariladi va markazga birlashtiriladi. So'ngra uchinchi, to'rtinchi ko'rinishlar bajariladi va birlashtirilgan to'g'ri to'rtburchakka tikiladi. Har bir bajarilgan ishdan keyin choklarni dazmonlash kerak, aks holda tikilayotgan qiyqim cho'zilib qolishi yoki notekis tikilishi mumkin. Bu ishda qiyqimdan tashqari karton, metal yoki plastmasadan tayyorlangan andozalar, chizg'ich, igna, o'tkir qaychi kerak. Buyumning eskizi avval masshtab qog'oziga chiziladi. Kerak bo'lgan buyumning o'lchami o'chanib, keyin esa eni va bo'ylari hisoblanib, masshtab qog'oziga tushuriladi va kerak bo'lgan

to'rtburchaklik yoki uchburchaklik naqishlar chiziladi, qalamlarda rang beriladi. Hosib bo'lgan naqsh yoqsa, unda bu naqsh chizg'ich va andozalar yordamida flyzylinga chiziladi.¹



O'quvchilar uylarida quroqcilik usulida tikilgan buyumlarni borligini aniqlash, quroq tikish uchun gazlama qiyqimlarini olib kelish.

Kutiladigan natija: O'quvchilar texnologiyani amaliyotga tadbiiq etishni o'rganadilar.

O'qituvchi o'quvchilarga yangi mavzuni bayon qilgandan so'ng, guruhlariga "Nima uchun" grafikli organayzeri chizmasini to'ldirishni tushuntirib beradi. Har bir guruh o'quvchilari yangi mavzu bo'yicha tushunmagan qismlarini muammoli savol sifatida yozib chiqadilar. Shundan so'ng, tayyorlangan sxemalar guruhlar o'rtasida almashtiriladi va savollarga javoblar yozib chiqiladi. Dars so'nggida, "Nima uchun" sxemasi o'qituvchi rahbarligida guruhlar o'rtasida umumlashtiriladi.

Kutiladigan natija: O'quvchilar mavzu yuzasidan zaruriy bilimlarni o'zlashtiradi, kursning mohiyati haqida tasavvurga ega bo'ladi.

"Yordamchi savatchalar" metodi

"Yordamchi so'zlar" mavzusini o'rgatishda "Yordamchi savatchalar" metodi tafsilotini ko'rib chiqamiz. Bilamizki, metod tushunchasi ma'lum bir ishni amalga oshirishda qo'llaniluvchi uslub, usul ma'nosi sifatida talqin qilinadi. Darslikda berilgan mavzuni o'qitishda ham har bir o'qituvchida o'z shaxsiy metodikasi va prinsplari bo'lishi lozim. Mavzuni yetkazishda samaradorlikni oshirishda kuchli metodik qurollarga ega bo'lish o'ta ahamiyatlidir. Qolaversa, shiddat bilan rivojlanib borayotgan davr yoshlarini o'qitishda darslarni qiziqarli uslublar bilan o'tish pedagoglarga xos bo'lgan noyob xislatlardan biridir



Shu o'rinda diqqatimizni darslarni qiziqarli, zeriktirmaydigan tarzda o'tishga qaratishimiz eng samarali yechimdir. Metodning nomi bejizga "Yordamchi savatchalar" deb atalmagan.

¹ M. Ochilov «Yangi pedagogik texnologiyalar» / qo'llanma. - qarshi: Nasaf, 2000.

Metodni eshitgan o'quvchi darsda qandaydir savatchalardan foydalanish haqida tasavvur qila boshlaydi. Bu jihat o'quvchilarda tasavvur qilish qobiliyati kengayishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari o'sha savatchalar nimadir ishni bajarishda yordamchi bo'lishi haqida ham tafakkur qila oladilar.

Kutiladigan natija: O'quvchilar yangi mavzu bilan tanishadilar, ta'lim texnologiyalarining ilmi-nazariy asoslari haqida ma'lumot oladilar.

Tikiladigan quroq buyumiga eskiz chizish va shablonlar tayyorlash.

Darsga tayyorgarlik ko'rish va dars jarayonida sinf xonasini guruhlar ishlashi uchun tayyorlash. O'quvchilar sinfga kirish vaqtida o'qituvchi stolida teskari qo'yilgan rasmlardan birini olib, shu rasm ko'rsatilgan stolga borib o'tirishi kerak. O'qituvchi guruh stoliga guruhni nomini ifodalovchi tasvir, shakl yoki raqamni sinfni darsga tayyorlash vaqtida stolning o'rtasiga qo'yib qo'yadi.

O'qituvchi ushbu metodni qo'llashdan oldin guruhlar bajarishi kerak bo'lgan vazifalarni tushuntiradi. Dars jarayonida amal qilish lozim bo'lgan qoidalar sinf doskasiga ilib qo'yiladi. Reglamentga to'liq rioya qilishlari lozimligini ta'kidlaydi. Guruhlarga quyidagi savollar beriladi.

O'qituvchi o'quvchilarga dars mavzusini eslatadi. O'quvchilardan Texnologiya darsida bajarilgan ishlarni ketma-ketligini so'raydi; uyga vazifa – tikadigan buyumi uchun eskiz chizish va shablon tayyorlab kelish topshirig'ini berib, yakunlaydi.

Ayrim mavzular mahalliy sharoitdan va maktabning ichki imkoniyatidan kelib chiqqan holda imkoniyatning cheklanishi hisobiga yoki yosh o'qituvchilarning kasbiy malakasi kamligi sababli o'quvchilar bilimida bo'shliqlar paydo bo'lishi kuzatildi. Shu bo'shliqlarni to'ldirish va o'qituvchilarga metodik yordam ko'rsatish maqsadida 5-7 sinf o'quv dasturida quyidagi mavzular qisman murakkabligi aniqlandi hamda ushbu mavzular bo'yicha sinflar kesimida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda dars ishlanmalari tayyorlandi.

Metalga ishlov berish stanoklari va ular haqida tushuncha; mashinalarning asosiy qismlari; metall buyumlarni biriktirish turlari (harakatsiz (payvand) va yarim harakatchan); asbob-uskuna va moslamalardan foydalanish hamda ta'mirlash; yog'ochga ishlov berish stanoklari va ularning tuzilishi; asbob-uskuna va moslamalarning tuzilishi va turlari; tayyorlanmaning eskizi va texnologik xaritasini tuzish, tanlash, rejalash va tayyorlash; elektr montaj ishlarida ish o'rnini tashkil qilish va elektr o'tkazish simlarining turlari.

Yuqorida berilgan mavzularni o'quvchilar tomonidan to'liq o'zlashtirilishi uchun dars jarayonini ilg'or pedagogik texnologiyalar va aktiv va interaktiv metodlardan foydalangan holda tashkil etish zarur. Mazkur jarayon bo'yicha berilgan dars ishlanmasiga ijodiy yondashgan holda dars jarayoniga tadbiiq qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Natsionalnaya programma po podgotovke kadrov. / Garmonichno razvitoe pokolenie - osnova progressa Uzbekistana. - T. SHark, 1997.
2. M. Ochilov «Yangi pedagogik texnologiyalar» / qo'llanma. - qarshi: Nasaf, 2000.
3. N.Saidaxmadov, M. Ochilov «Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyixasi». - T.: XTB RTM, 1999.

4. M.G.Davletshin «Modulnaya texnologiya obucheniya». - T. 2000.
5. N.N.Azizxo'jaeva «O'qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi». - T. 2000
6. Stil Djeni, Meredis Kert, Teligl CHARlz «Osnovi razvitiya kriticheskogo mishleniya» / Posobie v 8-mi knigax. – Bishkek: Fond «Soros-Kirg'iziston», 1997-1999
7. V.A.Slastenin i dr. «Pedagogika: Innovatsionnaya deyatelnost» - M. 1997.